

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA HOLIDA XAYRIDDIN QIZI

BADIIY DISKURS SOXTA LOKUTIV AKTLARI
TARJIMASIDA KONTEKST FUNKSIONALLIGINI
TA'MINLASH TAMOYILLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
degree in Philology**

Qodirova Holida Xayriddin qizi

Badiiy diskurs soxta lokutiv aktlari tarjimasida kontekst funksionalligini
ta'minlash tamoyillari3

Кодирова Холида Хайриддин кизи

Принципы обеспечения функциональности контекста в переводе ложных
локутивных актов художественного дискурса23

Kodirova Holida Khayriddin kizi

Principles of Ensuring Functionality of the Context in the Translation of False
Locutionary Acts of Literary Discourse45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA HOLIDA XAYRIDDIN QIZI

BADIIY DISKURS SOXTA LOKUTIV AKTLARI
TARJIMASIDA KONTEKST FUNKSIONALLIGINI
TA'MINLASH TAMOYILLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2.PhD/Fil4663 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Qosimova Nafisa Farhodovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Rajabov Dilshod Zaripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Oybek Saporbayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "21" avgust soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "7" avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil "7" avgust dagi 26-2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.R.Ochilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, professor

Z.Q.Amanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti, tilshunosligi va tarjimashunosligida badiiy asarlardagi soxta lokutiv aktlarning muloqot jarayonida nafaqat tilning yuzaki qatlamini, balki muallifning kommunikativ maqsadi, madaniy konnotatsiyalari hamda matnning estetik mazmunini aks ettirish xususiyatlarini zamonaviy paradigma doirasida o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq ularning tarjimasida kontekstual funkcionallik, pragmatik ta'sir va implitsit mazmunni adekvat qayta yaratish bilan bog'liq muammolar hanuzgacha to'liq yechim topmagan. Shu bois, soxta lokutiv aktlarning badiiy diskursda voqelanish mexanizmlarini, kontekstning pragmatik va lingvomadaniy funksiyalarini hamda ularni tarjimada saqlashga xizmat qiluvchi strategiya va tamoyillarni aniqlash, kommunikativ ekvivalentlikni semantik, pragmatik va estetik uyg'unlik asosida ta'minlashning ilmiy mezonlarini ishlab chiqish zamonaviy tarjimashunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tarjimashunosligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda badiiy diskursdagi nutq aktlarining pragmatik mohiyati, ularning kontekst bilan uzviy bog'liqligi, implitsit mazmunni ifodalash mexanizmlari hamda tarjimada kommunikativ ekvivalentlikni ta'minlash masalalari ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida rivojlanmoqda. Xususan, soxta lokutiv aktlarning lingvokognitiv, pragmatik, lingvomadaniy va diskursiv xususiyatlarini kompleks tadqiq etish, ularning kontekstga bog'liq funksional yukini aniqlash, tarjima jarayonida pragmatik yo'qotishlarni kamaytirish hamda muallifning kommunikativ niyati va estetik ta'sirini adekvat qayta tiklashga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy ilm-fanning strategik ahamiyatga ega yo'nalishlari sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, badiiy diskurs soxta lokutiv aktlari tarjimasida kontekst funkcionalligini ta'minlash tamoyillarini qiyosiy-pragmatik va kognitiv yondashuvlar asosida tizimli tadqiq etish, ularning tarjima strategiyalarini ilmiy asoslash hamda pragmatik-ekvivalentlik mezonlarini takomillashtirish va ilmiy baholashga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy tillarni o'rganish, tarjimashunoslikni rivojlantirish va milliy adabiyot namunalarini jahon ilmiy-madaniy makoniga olib chiqishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Harakatlar strategiyasining davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish o'zbek tarjimashunosligi sohasi uchun ham salmoqli tadqiqotlarni jahon standartlari darajasiga olib chiqishdek ustuvor vazifani belgilab berdi¹. Mazkur ustuvor vazifalardan kelib chiqib, badiiy diskursdagi soxta lokutiv aktlarning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks tadqiq etish, ularning tarjimasida kontekst funkcionalligini ta'minlash tamoyillarini ishlab chiqish, milliy badiiy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilishda kommunikativ-pragmatik ekvivalentlik mezonlarini takomillashtirish hamda tarjimonlarning

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil, 8-fevral. – № 28 (6722).

pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs va uning ahamiyati, nutq aktlari nazariyasi, badiiy diskursda soxta nutq aktlarining lokutiv va illokutiv tasnifi hamda soxta nutq aktlarining semantik va kommunikativ-pragmatik tadqiqi, soxta nutq aktlarni ifodalashda lisoniy shaxsning startegiyalarini aniqlash borasida jahon tilshunos olimlari, jumladan, ingliz tilshunoslari J.Ostin, J.Syorl, D.Fallis, P.Folkner, A.Stok, J.Meybor, N.Marselli, A.Rebol, X.Vaynrrix; rus tilshunosligida A.Lenets; O.Leontyev, V.Shaxovskiy, Y.Kubinova, N.Panchenko, N.Plotnikova; o'zbek tilshunosligida esa D.Ashurova, Sh.Safarov, Z.Rasulov, A.Ko'chiboyev kabi bir qator olimlarning ishlarida alohida tadqiq etilgan². Nutq aktlari tarjimasida antroposentrik paradigma tamoyillarini qo'llash,

² Austin J.L. How to Do Things with Words. – London: Oxford University Press, 1971. – 167 p.; Searle J.R. Speech Acts: An essay in the philosophy of language. – New York.; London: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.; Fallis D. What is lying? // The Journal of Philosophy, 2009. – 106 p.; Faulkner P. What is wrong with lying? Philosophy and Phenomenological Research. Sheffield, 2007. – P. 535-557; Stokke A. Lying, deceiving, and misleading. Philosophy Compass. – Sweden, 2013. – P. 348-359; Meibauer J. The Oxford Handbook of Lying. – Oxford, 2018. – P. 14; Marsili N. Lies, Common Ground and Performative Utterances. – Erkenntnis, 2021; Reboul A. The description of lies in speech acts theory. Pretending to Communicate. – De Gruyter, 1994. – P. 292-297. Вайнрих Х. Лингвистика лжи. – Москва: Прогресс, 1987; Ленец А.В. Коммуникативный феномен лжи: лингвистический и семиотический аспекты. Дис. ... д-ра филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010. – 392 с; Леонтьев Т.И., Гнезdechko О.Н. Ложь: типы и средства выражения. Монография. – Владивосток, 2018. – 233 с.; Шаховский В.И. Человек, лгущий в реальной и художественной коммуникации. – Волгоград: Перемена, 2005. – С. 173-204; Кубинова Й. Речевая интенция «ложь, обман» в семантическом и коммуникативно-прагматическом аспектах. – Москва, 2002. – 177 с; Панченко Н.Н. Сравнение как средство дескрипции лжи и обмана // Основное высшее и дополнительное образование: проблемы дидактики и лингвистики. – Волгоград, 2000. – С. 138-143; Плотникова Н.С. Неискренний дискурс. – Иркутск, 2000. – 244 с.; Ashurova D.U. Text Linguistics. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 204 b; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – 318 б; Расулов З.И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни

mazkur jarayonga funksional-kommunikativ doirada yondashish, diskurs tarjimasining pragmatik aspektlari va tarjimaning lingvomadaniy muammolari A.Noybert, G.Turi, Ch.Nord, B.Hatim, J.Mundey, C.Shaffner, I.Voynich, V.Sdobnikov, K.Leontyeva, Z.Lvovskaya kabi jahon tarjimashunoslari tomonidan o'rganilgan.

O'zbek tarjimashunosligida diskurs va uning lisoniy/nolisoniy elementlarini tarjima qilish masalalari G'.Salomov, N.Komilov, I.Mirzayev, Sh.Safarov, G'.Rahimov, Q.Musaev, X.Xamrayev, N.Qosimova³ kabi tarjimashunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq "Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" (2021-2024) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy diskurs soxta lokutiv aktlari tarjimasida kontekst funksionalligini ta'minlash tamoyillarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxslararo muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, soxta diskurs muammolarini alohida lingvistik o'rganish obyekti sifatida yoritib berish;

soxta diskurs lokutiv va illokutiv o'lchovlari tasnifini taqdim etish va uni badiiy matnda ifodalash usullari, funksiyalarini tavsiflash;

badiiy tarjimada soxta nutq aktlarining ma'nosini, maqsadini, kommunikativ niyati va vazifasini asliyat kontekstini hisobga olgan holda to'g'ri anglab, tarjimada ham xuddi shunday ta'sirini saqlagan holda moslashtirish yo'llarini o'rganish;

шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида). Монография. – Бухоро: Durdona, 2022. – 168 б.; Кўчибоев А. Матн прагматикаси (Ўқув-услугий қўлланма). – Самарқанд, 2015. – 90 б.

³ Neubert A., Shreve G.M. Translation as Text. – London: Kent State University Press, 1992. – P. 14; Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam and Philadelphia: Benjamins, 1995. – P. 103-105; Nord Ch. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997; Hatim B. Translating text in context. The Routledge Companion to Translation Studies. – Abingdon: Routledge, 2009. – P. 36 – 53; Munday J. Introducing Translation Studies. Theories and applications. 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2012; Schaffner C. Discourse Analysis. Handbook of Translation Studies. – Amsterdam: John Benjamins, 2013. – P. 47–224; Войнич И.В. Стратегии лингвокультурной адаптации художественного текста при переводе. – Пермь, 2010. – 229 с.; Сдобников В.В. Оценка качества перевода. Коммуникативно-функциональный подход. Монография. – Москва: Флинта, 2015. – 107 с.; Леонтьева К.И. Когнитивно-семиотическая модель перевода: доминанты, перспектива, дискурс (на материале русских переводов произведений англоязычной литературы XIX-XX веков). Дисс... доктора филол. наук. – Тверь, 2022. – 523 с.; Львовская З.Д. Современные проблемы перевода. – Москва, 2008. – С. 28; Саломов Г. Таржима санъати. – Тошкент, 1985. – 263 б.; Комилов Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати: Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 1970. – 349 б.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дисс... доктора филол. наук. – Ташкент, 2002. – 472 с.; Сафаров С.Ш. Когнитив таржимашunoslik. Монография. – Самарқанд, 2019. – 354 б.; Сафаров Ш. Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Иностранная филология: язык, литература, образование. – Самарқанд, 2018. – Б. 9-20; Раҳимов Ғ.Х.Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2016. – 176 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.; Хамраев Х.К. Воссоздание национального колорита произведений узбекской прозы во французских переводах (на материале произведений Айбека и А.Каххара). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 29 с.; Qosimova N.F. Tarjima kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliplar ishtirokining lingvomadaniy shartlanishi. Avtoref. diss. – Buxoro, 2024. – 72 b.

soxta nutqiy aktlar tarjimasining lingvomadaniy, sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganish;

badiiy diskurs soxta nutq aktlarining emotsional va estetik ta'sirini, pragmatik o'ziga xosliklarini va lingvomadaniy o'ziga xosliklarini tarjimada berishning kommunikativ-funksional va kontekstual tamoyillarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek badiiy adabiyoti namunalari va ularning ingliz tiliga bevosita amalga oshirilgan tarjima variantlari va ulardagi soxta lokutiv aktlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini badiiy diskursda voqelangan soxta lokutiv aktlarni tarjima qilishning kommunikativ-funksional va kontekstual tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvomadaniy, lingvopragmatik, funksional-kommunikativ, kontekstual, diskursiv tahlil va interpretativ tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soxta lokutiv nutq aktlarini qo'llash implitsit kommunikativ mazmunni ifodalash, muallifning yashirin kommunikativ niyatini voqelantirish hamda badiiy diskursning pragmatik ta'sirchanligini kuchaytirish zaruratidan kelib chiqishi, ularning voqelanishi esa muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intensiyasi, ruhiy holati va fon bilimlari kabi g'ayrilisoniy omillar bilan bevosita bog'liqligi hamda mazkur omillarning muayyan kontekstda namoyon bo'lishi dalillangan;

badiiy diskurs tarjimasida uchraydigan soxta lokutiv aktlarning pragmatik mohiyati, milliy-lisoniy, kontekstual-funksional, uslubiy xususiyatlari, kogezi vositalari, kommunikativ-kontekstual shartlanishi tarjimashunoslikning kommunikativ-funksional tamoyillariga ko'ra til egalarining tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urfodat va marosimlari, tafakkur tarzi bilan chambarchas bog'liqligi isbotlangan;

soxta diskurs lokutiv aktlari tarjimasida kommunikativ tarjima tamoyilining ustuvorligi, qo'shish, aniqlashtirish, umumlashtirish usullarining ikkilamchi xarakteri; soxta diskursning kommunikativ-kontekstual hodisa sifatida nutqiy vaziyatga bevosita bog'liqligi va funksional shartlanish xususiyatlari sababli tarjimada adekvatlikka erishishning eng samarali usuli kommunikativ tarjima ekanligi aniqlangan;

o'zida implitsit (yashirin) ma'nolarni mujassamlashtirgan soxta nutq aktlarining ma'no va maqsad, niyat, ohang kabi elementlardan hosil bo'lgan pragmatik potensialini tarjimada qayta tiklash jarayonida mazkur nutq aktining lokutiv, illokutiv va perllokutiv aspektlarini hisobga olish asliyat matnining pragmatik mazmuni, uslubiy ta'sirchanligi va muallif kommunikativ intensiyasini ekvivalent tarzda qayta ifodalashni ta'minlovchi hamda tarjimaning to'laqlonligini kafolatlovchi strategiya ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy diskurs soxta lokutiv aktlari va ularning voqelanish vositalari zamonaviy tilshunoslik qonuniyatlari asosida amalda bo'lgan antropotsentrik paradigma birlik sifatidagi xususiyatlari jahon tilshunosligining eng so'nggi yutuqlari asosida aniqlangan;

badiiy diskurs soxta lokutiv aktlari tarjimasida kontekst funksionalligini ta'minlashda komunikativ-funksional yondashuvning amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan;

badiiy diskursdagi soxta lokutiv nutq aktlarini tarjima qilishning kommunikativ-pragmatik modeli va kontekst funksionalligini ta'minlash strategiyalari ishlab chiqilib, ularni badiiy tarjima amaliyotida qo'llash, tarjimonlar tayyorlash jarayonida maxsus o'quv kurslari hamda metodik tavsiyalarni takomillashtirish orqali tarjima sifatini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mavzusi bo'yicha muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning nazariy tadqiqot usullari, lingvomadaniy, lingvopragmatik, funksional-kommunikativ, kontekstual, diskursiv tahlil va interpretativ tahlil usullari bilan asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati soxta diskurs lokutiv aktlarining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari bo'yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tizimidagi mazkur til hodisalarining xususiyatlarini chog'ishtirma aniqlashda foydalanish mumkinligi, tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishlarida tadqiqot ishlarini olib borishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus, umumta'lim tizimida til va nutq hodisalarini farqlash, diskurs turlarini farqlash, badiiy nutq tahliliga erishish, adabiy manbalarning qiyosiy til tahlili bo'yicha maxsus kurs va seminarlar o'tish, "Kognitiv leksikologiya", "Madaniyatlararo muloqot", "Kognitiv tarjimashunoslik", "Pragmalingvistika", "Tarjimaning pragmatik aspektlari" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xorijiy tillarni o'rganishga tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy diskurs soxta lokutiv aktlari tarjimasida kontekst funksionalligini ta'minlash tamoyillarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

soxta lokutiv nutq aktlarini qo'llash implitsit kommunikativ mazmunni ifodalash, muallifning yashirin kommunikativ niyatini voqelantirish hamda badiiy diskursning pragmatik ta'sirchanligini kuchaytirish zaruratidan kelib chiqishi, ularning voqelanishi esa muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intensiyasi, ruhiy holati va fon bilimlari kabi g'ayrilisoniy omillar bilan bevosita bog'liqligi hamda mazkur omillarning muayyan kontekstda namoyon bo'lishiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish" mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil

26-dekabrda 04/1-4278-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilida yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini tarjima qilishda nutq aktlarining pragmatik ta'sirini tarjima matnida ham asliyatdagi kabi qayta yaratish jihatlarga e'tiborni kuchaytirishga erishilgan;

badiiy diskurs tarjimasida uchraydigan soxta lokutiv aktlarning pragmatik mohiyati, milliy-lisoniy, kontekstual-funksional, uslubiy xususiyatlari, kogezi vositalari, kommunikativ-kontekstual shartlanishi tarjimashunoslikning kommunikativ-funksional tamoyillariga ko'ra til egalarining tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, tafakkur tarzi bilan chambarchas bog'liqligi bilan bog'liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2018-2022-yillarda Yevropa Komissiyasining Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilgan "TALENT – Establishing Master Programmes in Human Resource Management and Talent Development in Central Asia" xalqaro loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 19-dekabrda 06/8114-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilari va mutaxassislarining ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan nutqiy aktlar lingvomadaniy xususiyatlari haqidagi bilimlar bazasini yanada kengaytirishga asos bo'lib xizmat qilgan;

o'zida implitsit (yashirin) ma'nolarni mujassamlashtirgan soxta nutq aktlarining ma'no va maqsad, niyat, ohang kabi elementlardan hosil bo'lgan pragmatik potensialini tarjimada qayta tiklash jarayonida mazkur nutq aktining lokutiv, illokutiv va perlokutiv aspektlarini hisobga olish asliyat matnining pragmatik mazmuni, uslubiy ta'sirchanligi va muallif kommunikativ intensiyasini ekvivalent tarzda qayta ifodalashni ta'minlovchi hamda tarjimaning to'laqligini kafolatlovchi strategiya ekanligi bilan bog'liq xulosalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasida "Ayol va jamiyat", "Assalom, Buxoro", "Psixolog huzurida", ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2026-yil 18-martda 01-09-29-son ma'lumotnomasi). Natijada soxta nutq aktlarining pragmatik potentsiali va lingvopramatik xususiyatlariga doir mulohazalar teleradiokompaniya jamoasi hamda teletomoshabinlarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishga va o'zbek va ingliz tillarida ravon fikrlash, mulohaza yuritishi uchun zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shulardan, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy kommunikativ kontekstda soxta diskurs voqelanishining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi to‘rt fasldan tarkib topgan. Unda borliqni idrok etish ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchilarning milliy-madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, zamonaviy tilshunoslikda soxta diskurs tushunchasi hamda uni yuzaga kelishining nazariy asoslari, soxta diskurs aktlarining kontekstual vazifadorligi, badiiy matnda soxta diskurs voqelanishida lisoniy shaxs strategiyalari va badiiy diskurs tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuvning ahamiyati kabi nazariy qarashlar va masalalar muhokama qilingan.

Diskurs – bu insoniy faoliyatning murakkab jarayoni bo‘lib, lisoniy va nolisoniy omillarning mushtarak holda muayyan maqsad yo‘lida voqelanishidir.⁴ Diskurs muloqot mahsuli sifatida yuzaga keladi va uning shakllanishida asosiy vositachilar – so‘zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat) muhim rol o‘ynaydi. Inson nutq yuzaga kelishining asosiy omili sifatida, uning tabiatidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, bu nutq har doim ham to‘g‘ri, samimiy yoki rost bo‘lavermaydi. “Inson omili” doimo ham muloqotning umumiy qonunlariga, P.Grays tabiri bilan aytganda, “hamkorlik tamoyillari”⁵ga bo‘ysunavermasligini anglash tilshunoslarga muloqotning bu tomoniga bo‘lgan qarashlarini kengaytirish va uni o‘rganish muammolari doirasiga soxta nutq kabi hodisani kiritish vazifasini qo‘yadi.

J.Ostin birinchi bo‘lib nutq aktlari bilan bog‘liqlikda nosamimiylik tushunchasini kiritadi va bunda o‘zida muayyan shartlarni yuzaga keltiruvchi nutq aktlarini “samarasiz” deya ta’riflaydi. Uning ta’kidlashicha, barcha nutqiy jumlar ifodalanishi (talaffuz etilishi) mumkin, ammo harakatlar samarasiz bo‘lishi mumkin bo‘lmaydi. Bu nazariya soxta jumalarni lisoniy shaxs tomonidan tahlil qilishga undadi va nutq aktlarining rost yoki yolg‘onligi real nutq vaziyatida o‘rganila boshlandi, asosiy e’tibor esa uning ishtirokchilariga qaratildi. J.Ostindan so‘ng J.Syorl, J.Lakof, N.Arutyunova va N.Plotnikova⁶ ham o‘zlarining bir qator tadqiqotlarida mazkur aktlarni bu jihatdan tahlil etishda “nosamimiylik” atamasini qo‘llab kelmoqdalar.

⁴ Ленец А.В. Коммуникативный феномен лжи: лингвистический и семиотический аспекты. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010. – 392 с.

⁵ Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / ed. by P. Cole, J. L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

⁶ Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.; Lakoff G. Hedges: A Study in Meaning Criteria and the Logic of Fuzzy Concepts // Journal of Philosophical Logic. – Dordrecht, 1973. – Vol. 2. – P. 458–508.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.; Плотникова С.Н. Неискренний дискурс (в когнитивном, прагматическом и структурно-функциональном аспектах). – Иркутск: Изд-во ИГЛУ, 2000. – 244 с.

Rus tilshunos olimlari A.Lenets va L.Vitsyuk o‘zlarining tadqiqotlarida “soxta diskurs” tushunchasini “yolg‘on diskurs” sifatida atab, uni yuzaga kelishidagi asosiy omil sifatida yolg‘on, aldov va nosamimiylik kabi tushunchalarni nutq aktlarida tahlil qildilar. Tilshunos olim L.Vitsyukning tadqiqotida yolg‘on diskurs yoki soxta diskurs nosamimiy so‘zlovchining shaxsiy fikrini ifodalovchi nutqiy harakatlar ketma-ketligi sifatida aniqlanadi⁷.

Yuqorida sanab o‘tilgan bu atamalardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, tilshunos olimlar ushbu ta’riflar orqali tadqiq etilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini aks ettiradigan eng maqbul belgini topishga harakat qilmoqdalar. Bu borada o‘zbek tilining izohli lug‘atida “soxta” so‘ziga quyidagicha ta’rif keltirilgan:

1. Qalbakilik maqsadida asliga o‘xshatib ishlangan, yasalgan; yasama, qalbaki.

2. Yetarli asosga ega bo‘lmagan, asossiz, puch.

3. Yolg‘ondakam, tagi puch, yuzaki.

4. Samimiyatsizlik bilan shunchaki qilingan, nosamimiy, yuzaki, yasama.

Shu tariqa, bu ta’riflar “soxta diskurs” atamasini lisoniy tahlilda kompleks yondashuv asosida qo‘llash imkonini beradi va bizning fikrimizcha, ushbu so‘z eng neytral ifoda bo‘lib, diskurs nutq aktlarini bu tomondan tadqiq etishda barcha lingvistik vositalar majmuasini hisobga olish imkonini beradi.

Nutq aktlari nazariyasining shakllanishida J.Ostinning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Olim ilk bor nutqiy harakatlarni lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarga ajratgan bo‘lib, bu uchlik model muloqot jarayonining murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishini tushuntirishga xizmat qiladi. Keyinchalik bu nazariy asos J.Yule⁸ tomonidan rivojlantirilib, u ham nutq harakatlarini aynan shu uch bosqich asosida izohlash zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, nutqiy jarayonda gapning shakllanishi (lokutiv), gap orqali niyat bildirishi (illokutiv) va tinglovchiga ko‘rsatilgan ta’sir (perlokutiv) bosqichlari ajratiladi.

O‘zbek tilshunosligida esa Sh.Safarov tomonidan ushbu konsepsiya milliy til materiallari asosida chuqurlashtirilib, nutq aktlari uch bosqichli faoliyat sifatida talqin qilinadi. Bu esa muloqotning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy nazariy modelni yanada kengaytirish imkonini beradi⁹.

Bunday yondashuv, albatta, tarjima jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etadi. B.Hatim va I.Meyson ta’kidlaganidek, agar tarjimada nutq aktlari ortidagi pragmatik qoidalar buzilsa, bu noaniqliklar, tushunmovchiliklar va hatto madaniy nomuvofiqliklarga olib kelishi mumkin¹⁰. Ayniqsa, badiiy nutq tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuv qo‘llanilishi, ya’ni matn ortida turgan kommunikativ niyatni aniqlash va uni tarjima tilida ham nafaqat leksik-semantik, balki pragmatik jihatdan ham to‘laqonli ifoda etish, tarjimaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi.

⁷ Вицюк Л.А. Лексико-семантические и синтаксические средства реализации ложного дискурса: на материале русского и английского языков. Дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2010. – 146 с.

⁸ Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.

⁹ Buzrukova M. O‘zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari //Xorijiy filologiya. – №1. – Samarqand, 2020. – 108 b.

¹⁰ Hatim B., Munday J. Translating text in context. – London: The Routledge Companion, 2000. – P. 36-53.

Ushbu nazariyaning taraqqiyotida R.Yakobson alohida o‘rin tutadi. Uning til funksiyalari haqidagi qarashlari, ayniqsa, kommunikativ funksiya atamasining tarjima nazariyasida qo‘llanilishi tarjimon faoliyatiga yangicha yondashishni taqozo etdi. Tilning faqat kodlash vositasi sifatida emas, balki insonlar o‘rtasida axborot, hissiyot va niyat almashinuvi vositasi sifatida qaralishi tarjimaning mohiyatini chuqurroq ochib beradi¹¹.

Shunday qilib, nutq aktlarini lisoniy, pragmatik va kommunikativ nuqtai nazardan tahlil qilish nafaqat ularning asliyat tili muhitida qanday ishlatilishini, balki ularning tarjimada qay darajada muvaffaqiyatli aks etishini ham o‘rganishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bob “**Soxta nutq aktining kommunikatsiyadagi o‘lchovlari**” deb nomlangan bo‘lib, unda kommunikatsiya jarayonida soxta nutq akti o‘lchovi tushunchasi va uning nazariy asoslari, nutq aktlarining lokutiv va illokutiv klassifikatsiyasi, soxta lokutiv va illokutiv aktlarning kommunikativ o‘lchovlari, ularning badiiy diskursda voqelanish xususiyatlari va tarjimada berilish usullari tahlil etilgan.

Pragmatik o‘lchovda nutq aktlarining ta’siri va uning adresat tomonidan idrok etilishiga e’tibor qaratilganligi bois, soxta nutq aktlari ham kommunikativ jarayonda turli o‘lchovlar orqali baholanishi mumkin. Olimlar K.Kastelfranchi va I.Poggi¹² tadqiqotlarida soxta nutq aktlarini kommunikativ maqsad va kontekstga bog‘liq holda o‘lchash usullarini taklif qilib, pragmatik o‘lchov shkalalari asosida niyat shkalasi, tasdiqlash shkalasi, taktika shkalasi, bilim va ishonch darajasining shkalasiga ko‘ra soxta nutq aktlarining lokutiv va illokutiv o‘lchovlarini tasnif qilishdi.

Lokutiv akt adresantning kommunikativ maqsadidan kelib chiqib, adresatga ma’lum leksik, grammatik va fonetik qoidalar asosida biror axborotning uzatilish va qabul qilinish jarayoni tushunilib, adresantning kommunikativ niyati (jumlaning ifoda etishdan asl maqsad) va aynan ifoda etilgan jumla orasida nomutanosiblik yuzaga kelsa, bunday vaziyatda ushbu nutq samarasiz yoki soxta hisoblanadi. Soxta lokutiv aktlar tilshunoslikda, xususan pragmatika va nutq aktlari nazariyasida J.Ostin va J.Syorl tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi va H.P.Graysning Hamkorlik tamoyili asosida chuqur o‘rganiladi. J.Ostinning fikriga ko‘ra, lokutiv aktlar fonetik, fatik va retik kabi o‘lchovlarni o‘zida ifoda etib¹³, badiiy diskursda ham ushbu o‘lchovlar lokutiv aktning soxtalik nuqtai nazaridan tahlil etish imkonini beradi.

J.Syorlning nazariy qarashlariga ko‘ra, so‘zlovchining bir vaqtning o‘zida ma’lum bir ekstralingvistik maqsadga ega bo‘lgan yolg‘ondan *ma’qullash*, *va’da qilish*, *maqdash*, *salomlashish*, *xabar berish*, *e’lon qilish*, *maslahat* kabi turli soxta harakatlarni so‘zlar yordamida bayon etishi orqali bir kommunikativ niyatni amalga oshirishi, tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishi nutq aktining *illokutsion* aspektida

¹¹ Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation / ed. by R.A. Brower. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.

¹² Castelfranchi Cr., Poggi I.: Lying as Pretending to give Information. – Berlin, 1994. – P. 276–291.

¹³ Austin J.L. How to do things with words. – London: Oxford University Press, 1986. – P. 84.

samimiylilik shartlarining (sincerity condition) buzilishiga olib keladi. Illokutiv nutqiy aktda soʻzlovchining jumlani ifoda etishdan koʻzlagan niyati uning turi yolgʻon yoki rostligini aniqlashda muhim mezonlardan hisoblanib, olim tomonidan taqdim etilgan klassifikatsiya bularning barchasi uchun etalon boʻlib xizmat qilmoqda¹⁴. Olimning nutq aktlari nazariyasi borasida keltirgan klassifikatsiyasiga asoslangan holda soxta illokutiv aktlarning quyidagicha oʻlchovlarini keltiramiz:

Soxta assertiv badiiy diskursda eng koʻp uchraydigan illokutiv akt boʻlib, soʻzlovchi yolgʻondan taʼrif va tavsif, tushuntirish, aniqlashtirish, xabar berish, tasdiqlash, qoralash, tan olish, bayon qilish, taxmin, muhokama qilish kabi bir qator nutqiy harakatlarni soʻzlar orqali ijro etadi. Mazkur nazariya qoʻllanilishini badiiy adabiyotdan keltirilgan namuna tahlilida koʻramiz:

- *Shapagʻ, dedim unga, – katta toʻping qayerda?*
- *Qoʻgʻirchoqlarimning oldida, nima qildi?*
- *U yerda yoʻq-ku!*
- *Ha... oʻlgur, sen olgandursan, hozir berasan, ber.* (Shum bola, 18-b.)

Bu vaziyatda soʻzlovchi singlisini chalgʻitib, nariroqqa ketkazish uchun “qoʻgʻirchogʻining yoʻqolgani” toʻgʻrisida haqiqatga zid axborotni yetkazib, *manfaatni koʻzlash* funksiyasi orqali soxta tasdiqni nutqida ijro etmoqda.

Soxta lokutiv aktlarning keyingi turi – kommissivlar boʻlib, unda soʻzlovchi kelajakda biror bir harakatni bajarishni yolgʻondan oʻz zimmasiga oladi, uni yolgʻondan vaʼda berish, rejalashtirish, kelishish, qasam ichish, laʼnatlash, tahdid qilish, rad etish, kafolatlash kabi bir necha funksiyalar yordamida ifodalaydi. Soxta kommissiv aktiga xos xususiyatni quyidagi misol orqali tahlil qilamiz:

– *Gʻoʻza nobud boʻlsa, men javob beraman, agronom javob beradi, – baqirib yubordim.* (Sehrli qalpoqcha, 36 - b.)

Soʻzlovchi kelajakdagi javobgarlikni oʻz zimmasiga olishni vaʼda qilsa-da, amalda ushbu majburiyatni bajarish niyati va vakolatiga ega emas. Bu holatda soxta kommissiv nutq akti yordamida yolgʻon majburiyat orqali vaziyatdan chiqish va ishontirish funksiyasi amalga oshirilmoqda.

Nutq aktlari nazariyasida soxta *direktiv* nutq aktlari tinglovchini aldash yoki yolgʻoniga ishontirish maqsadida turli koʻrsatmalar yoki buyruqlarni ifoda etadi, soxta maslahatlar beradi. Soxta direktiv nutq aktlarida soʻzlovchi tinglovchini maʼlum bir harakatni amalga oshirishi uchun toʻgʻri yoʻldan ozdirishga urinadi:

- *Men ham sigir boqish toʻgʻrisida baʼzi maslahatlarni berdim.*
- *Omon, – dedim, – mening fikrimcha, arqon karavotingni olaket. Kecha zaxda yotaverib, mening belim ogʻrib qopti. Hozir kuz tushib qolgan vaqt, ayniqsa, toʻqay er, zaxkash, sigirni oʻtlatib qoʻyasan-da, oʻzing karavotni bir salqin joyga qoʻyib, maza qilib uxlayverasan.* (Shum bola, 83-b.)

Adresant goʻyoki oʻz tajribasi, bilimi yuzasidan “kerakli maʼlumotlarni” yoki “yoʻl-yoʻriqlarni” beradiganday oʻzini tutadi. Asl maqsad esa, muloqot muhitida

¹⁴ Searle J.R. Speech Acts: An essay in the philosophy of language. – London, 1969. – 203 p.

adresatni o'zining yolg'on maslahatiga ishontirish va bu orqali tinglovchini biror bir harakatni ijro etishiga erishishdir.

Keyingi illokutiv o'lchov *deklarativlar* bo'lib, ushbu guruhga yolg'ondakam e'lon qilish, shukr qilish kabi tasniflarni kiritishimiz mumkin:

– *Shiraga qarshi kurashishning yangi metodi shu bo'ladi. Tushundingmi! Zamondan orqada qolibsan kallavaram!* (Sehrli qalpoqcha, 53-b.)

So'zlovchi rasmiy e'lon shaklida yangi metodni taqdim etsa-da, aslida bunday vakolatga ega emasligi bu holatni soxta deklarativ nutq akti sifatida baholash imkonini beradi va tinglovchiga perlokutiv ta'sir o'tkazish vositasiga aylanadi.

Ekspressiv nutq aktlari so'zlovchining ruhiy holatini ifodalab, u og'riq, yoqtirish, yoqtirmaslik, zavqlanish, qayg'urish, rohatlanish kabi xususiyatlarni ifodalaydi. Ushbu guruhdagi nutq aktlariga yolg'ondakam afsuslanish, xursandchilik, maqtov, minnatdorchilik, xushomadgo'ylik, uzr so'rash bilan bir qatorda metaforik va kinoyali jumalarni ham kiritish mumkin:

– *Xo'sh, sening ishing qanday? – deb so'radi Omon.*

– *E, meniki ham, qo'yaver, tozayam mazza qildim-da, bu jonivor sigir shunday yuvvosh, shunday bir baraka topgur ekanki, yetaklab olib yurib, bir uvatga qo'yaman, xuddi qoziqqa bog'lab qo'yganday o'sha yerdan bir qarich qimirlamasdan o'tlaydi, o'tlab turgan joyidan o't sob bo'lib qolsa, "Naryoqqa o'tsam mumkinmi?", deganday qilib menga sekin qiya qarab qo'yadi.* (Shum bola, 82-b.)

So'zlovchi aslida sigir boqishdan toza xunob bo'lsa-da, dalaga o'zining o'rniga do'sti Omonboyni yuborish, o'zi uyda qolib, xo'jayinining "yengil" yumushlariga qarashib turish niyatida sigirni yolg'ondan maqtaydi va o'zining soxta hayratini, xursandchiligini soxta ekspressiv akti orqali yetkazishga urinadi.

Shunday qilib, soxta nutq aktlarining kommunikativ o'lchovlarining chuqur tahlili muloqot jarayonida soxta nutq aktlari muvaffaqiyatli kommunikatsiya me'yorlarining, muloqot talablarining va samimiylik shartlarining buzilishi natijasida yuzaga kelishini ko'rsatdi. Soxta nutq aktlarining kommunikativ o'lchov nuqtai nazaridan tizimli va ko'p darajali tahlili madaniyatlararo pragmatika va tarjima amaliyoti uchun samarali metodik asos yaratib beradi.

Uchinchi bob **"Soxta nutq aktlari kommunikativ-kontekstual va funksional aspektlarini tarjimada voqelantirish masalalari"** deb nomlanadi. Unda o'zbek badiiy diskursida kommunikativ tarjimaning kontekst funksionalligini tiklash vazifasi, soxta nutqiy aktlar voqelanishida leksik-grammatik vositalarining tarjima muammolari, o'zbek badiiy diskursida soxta nutq aktining pragmatik potensialini tarjimada tiklash tamoyillari, o'zbek badiiy diskursida soxta nutq aktlarini tarjimada berishning lingvomadaniy tamoyillari va tarjima usullari muhokama qilingan.

Badiiy matn orqali axborotlarni kitobxon yoki tinglovchiga uzatish va saqlash imkoniyati keng bo'lib, axborotning o'z retseptoriga ta'siri uning kommunikativlik va funksionallik xususiyatini namoyon etadi. Ammo ko'pgina hollarda o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima jarayonida ushbu nutq aktlari orqali ifodalangan

pragmatik omillarning va pragmatik munosabatlarning tarjimaviy muammolariga duch kelamiz. Kommunikativ tarjimada nutq aktlarining qanday kontekstual muhitda voqelanishi va qanday funksiyani bajarishi bir-birini to'ldiradi va ularni birgalikda qo'llash nutq aktining asl ta'sirini saqlab qolishga yordam beradi. O'zbek badiiy matni tarjimasida asliyat matnning kommunikativ-kontekstual va funksional jihatlarini hisobga olmasdan tarjima amalga oshirilsa, bunday holatda funksional va mazmuniy nomutanosibliklar yuzaga kelib, bu tarjimonga asliyat matn mazmunini to'laligicha yetkazishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu fikrning tasdig'ini quyidagi misol va uning tarjimasida ham kuzatishimiz mumkin:

Asliyat matni:

Shu payt eshik taqillab qoldi. Domla yugurib borib javob berdi:

– Hali tura turinglar, rahmatlikni hali beligacha ham yuvib bo'lganimiz yo'q. O'zimiz chaqiramiz. (Shum bola, 38-b.)

Tarjima matni:

–Wait a minute; we have not finished washing the body yet. We will call you when we are done. (A Naughty Boy, – P.32)

Asliyat matnida ifodalangan *Hali tura turinglar, rahmatlikni hali beligacha ham yuvib bo'lganimiz yo'q* jumlasidan o'lik tanasi hali yuvilishi boshlanmaganligi kontekstdan anglashiladi. Tarjimada esa o'lik yuvish jarayoni *washing the body* shaklida neytral tarzida ifodalanganligi bois mazkur kontekst kasb etgan o'ziga xos llokutiv ta'sir o'z kuchini ma'lum darajada yo'qotgan. Shuningdek, *rahmatlik* so'zi muayyan konnotatsiyaga ega bo'lib, o'zbek lingvomadaniyatida marhumga nisbatan hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ma'nosini bildiradi, murda haqida bevosita gap ketganda yanada yumshoqroq va samimiy ifoda beradi. Inglizcha tarjimada *the body* ifodasi esa lokutsiyaning bu yumshoqlik va hurmatini aks ettirmay, faqatgina jasadning jismonan mavjudligini ta'kidlaydi xolos.

Badiiy diskursda so'zlovchi muayyam axborotning ijrochisi sifatida tinglovchini o'zining soxta axborotiga ishontirish maqsadida turli leksik va grammatik vositalardan nutqida foydalanadiki, uning to'g'ri va sifatli tarjimasini yaratishda ham til tizimlari o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini, ham madaniy va tarixiy tafovutlar o'rtasidagi jiddiy farqlarni hisobga olish tarjimon oldiga qo'yiladigan jiddiy va mashaqqatli vazifalardan biri hisoblanadi. DePauloning soxta bayonotlarni aniqlash ustida olib borgan 120 dan ortiq tajribalarning xulosalari shuni ko'rsatdiki, so'zlovchi odatda ifodalanayotgan soxta axborot to'grisida kamroq *tafsilotlar beradi, ko'pincha salbiy bayonotlarni ifodalaydi, hissiy-emotsional, noaniq, shaxssiz, qochirim va tushunarsiz ohangda* namoyon bo'ladi va rost so'zlovchilar bilan solishtirganda, o'z bayonotlaridan va ular yolg'on gapirayotgan shaxs yoki odamlardan masofa saqlaydigan so'zlarni ko'proq ishlatishadi hamda umumiylikni ifoda etuvchi leksikalardan keng

foydalanishadi¹⁵. Mazkur nazariyaning qo'llanilishini o'zbek badiiy adabiyotida keltirilgan namuna tahlili va tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin:

Asliyat matni:

– *Nasibbekning hovlilari shu emasmi, oltin qiz?*
– *Yo'q, - deb kuldi Ra'no, - biz Nasibbekning qo'shnisimiz.*
– *Sho'rim qursin, - deb qo'l silkidi xotin, - men adashib sizlarni ovora qilibman.* (Mehrobdan Chayon, 216-b.)

Tarjima matni:

– *Is it Nasibbek's house?*
– *No, – Rano said smiling. – We are Nasibbek's neighbor.*
– *Oh, my god, – she said, – I am mistaken. I've made you much bother.*
(The Scorpion From The Altar, – P. 272)

Bunday lisoniy vositalarning ta'sirchanligi yuqori bo'lganligidan, so'zlovchi o'zi yuborayotgan axborotning yolg'onligini yashirishga, tinglovchini ushbu axborotning "haqiqat" ekanligiga ishontirishga erishadi. Ammo tarjima matnida shunday so'zlarning, masalan asliyatdagi soxta axborotni kuchaytirishga xizmat qiluvchi *oltin qiz* iborasining tushirib qoldirilishi o'zbekona murojaatdagi yumshoq va samimiy ohangning yo'qolishiga olib kelgan. Shuningdek, nazarimizda emotsional-baholovchi xususiyatga ega bo'lgan *sho'rim qursin* iborasining "*Oh, my God*" tarzida berilishi jumlaning xalqona uslub va hissiy ta'sirni yo'qotib, neytral ohang kasb etishiga sabab bo'lgan.

Qolaversa, so'zlovchi, noqulay vaziyatdan tezroq qutilish yoki rost axborotni yetkazishdan qochish sabab to'liqsiz gaplardan foydalanish, tasdiq-so'roq va ritorik so'roq gaplar yolg'ondakam tasdiq talab qilish, voqea yoki hodisaning kim tomonidan amalga oshirilganligini aniq ifoda etmay uchinchi shaxs birlikdagi fe'llardan foydalanish holatlari badiiy nutqda ko'p kuzatildi. Quyidagi tarjima namunasida mazkur fikrlarning tasdig'ini kuzatamiz:

Asliyat matni:

– *Nima qilib tong azonda tentirab yuribsan, bolam? Nima yo'qotgan eding?*
– *Daladan tushdim, ota.*
– *Ota-onang bormi? Gapni cho'zib o'tirmaslik uchun "o'lib ketganlar", deb qo'ya qoldim.* (Shum bola, 95-b.)

Tarjima matni:

– *Why are you wandering in the morning? What did you lose my son?*
– *I have come from the field.*
– *Do you have parents, my son? I did not want to talk much and said that they were dead.* (Naughty Boy, – P.85.)

Demak, leksik-grammatik vositalar tarjimaning barcha turlariga o'z ta'sirini o'tkazadi, shunga ko'ra nutq aktlarining tili va uning tarkibidagi leksik-grammatik

